



E CONF SERIES



International Conference on Modern Science and Scientific Studies

Hosted online from Madrid, Spain

Website: econfseries.com

20th December, 2024

INFORMATIKA O‘QITISH METODIKASI VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARINING JAMIYAT HAYOTIDAGI AHAMIYATI

Qodirova Mohidil Namozovna

Buxoro muhandislik-texnologiyalari instituti akademik litseyi

qodirovamohidil042@gmail.com

Olimova Sayyora Sulaymon qizi

Buxoro muhandislik-texnologiyalari instituti akademik litseyi

Annotatsiya

Mazkur maqolada Informatika o‘qitish metodikasi fanining mazmuni, maqsadi va vazifalari hamda axborot texnologiyalarining bugungi kunda jamiyat hayotida nechog‘li ahamiyatli ekanligi qisqacha yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Informatika fan sifatida, Informatika o‘quv predmeti sifatida, metodika, axborot texnologiyalari.

Абстрактный. В данной статье кратко рассматриваются содержание, цели и задачи дисциплины «Методика преподавания информатики», а также значение информационных технологий в современном обществе.

Ключевые слова: Информатика как наука, Информатика как предмет, методология, информационные технологии.

Abstract

This article briefly discusses the content, goals, and objectives of the discipline of Informatics Teaching Methods, as well as the importance of information technologies in today's society.

Keywords: Informatics as a science, Informatics as a subject, methodology, information technologies.



E CONF SERIES



International Conference on Modern Science and Scientific Studies

Hosted online from Madrid, Spain

Website: econfseries.com

20th December, 2024

Kirish

Informatika o‘qitish metodikasi fani oliv o‘quv yurti talabalari uchun umumiy o‘rta ta’lim maktabalarida, akademik litsey va texnikumlarda informatika fanidan ta‘lim berish, fanning tuzilishi va mazmunini ilmiy va psixologik-pedagogik nuqtai nazardan chuqur o‘rganishlarini ta‘minlovchi kurs hisoblanadi.

Asosiy

Informatika oqitish metodikasi kursining maqsadi-bo‘lajak informatika o‘qituvchilarida o‘qitishning muammolarini mustaqil yecha olish, o‘qitishning zamonaviy usullaridan foydalana olish, mustaqil o‘qitish ko‘nikmasini hosil qilish, uslubiy ijodni tarbiyalash kabilardan iborat.

Kursning asosiy maqsadi bo‘lajak informatika o‘qituvchisini o‘quv yurtlaridagi informatika predmetining mazmuni bilan tanishtirish, uni bo‘lajak kasbga tayyorlash- dagi ahamiyatini chuqur o‘rgatish, informatikani o‘qitishning asosiy uslubiy va didaktik shakllari, usullari, shuningdek, tamoyillarini o‘rgatish, o‘quv yurtlari informatika predmetining mazmunini ajrata olishga tayyorlashdan iborat.

Informatika o‘qitish metodikasi kursining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- ✓ informatikani o‘qitishning aniq maqsadlari va o‘quv predmetining¹ mazmunini aniqlash;
- ✓ o‘quv yurtlari informatika predmetining mazmuni bilan tanishtirish va uni tahlil qila olishga o‘rgatish;
- ✓ informatika predmetini o‘qitishning umumiy va xususiy uslublarini egallashga yordam beradi;
- ✓ qo‘ylgan maqsadlarga yetishishga qaratilgan ko‘proq ma‘qul bo‘lgan uslublarni va o‘qitishning tashkiliy shakllarini ishlab chiqish;
- ✓ informatika o‘qitishning didaktik usullari, shakllari va tamoyillarini o‘rgatish;
- ✓ o‘qitishning zarur vositalarini ko‘rib chiqish va o‘qituvchi ish faoliyatida ularni qo‘llash bo‘yicha yo‘riqnomalarni ishlab chiqish;
- ✓ o‘quv yurti informatika xonasini tashkil etish va jihozlash, undan foydalanish

¹ “Matematika va informatika o‘qitish metodikasi fanidan o‘quv- metodik majmua J.O‘.Muxammadiyev Toshkent.2019



E CONF SERIES



International Conference on Modern Science and Scientific Studies

Hosted online from Madrid, Spain

Website: econfseries.com

20th December, 2024

haqida tasavvur hosil qilish;

- ✓ mahalliy tarmoqli o‘quv yurti kompyuter xonasida ishlash ko‘nikmasini hosil qilish;
- ✓ informatika kursiga oid dastur, darslik, o‘quv qo‘llanmalar bilan tanishtirish va ularni tahlil qilishga o‘rgatish;
- ✓ informatika kursiga oid darslar tashkil etish, unga tayyorlanish va uni o‘tkazish bo‘yicha malakalarni shakllantirish;
- ✓ o‘quv yurti matematika kursidan olib boriladigan mashg‘ulotlar va ularning mazmunini ajrata olish yo‘l-yo‘riqlarini o‘rgatish;
- ✓ talabalarda, ya‘ni bo‘lajak o‘qituvchilarda sinf va sinfdan tashqari mashg‘ulotlar, turli qiziqarli tadbirlar o‘tkazishga malaka hosil qilish kabilardan iborat.

Informatika o‘qitish metodikasi kursining mazmuni ta‘lim muassasalarida informatika fanini yuqori sifatli o‘qitish usullarini joriy qilishdan iborat.

Informatika o‘qitish metodikasi kursi o‘z sohasidagi ishlanmalarni tayyorlashda pedagogik yangiliklar va psixologik tavsiyalarni hisobga oladi. Mazkur kurs pedagogika, psixologiya, matematika, informatika, matematik mantiq, matematik modellashtirish, programmalshtirish kabi fanlar bilan uzviy bog‘langan.

Informatika o‘qitish metodikasi kursi bo‘lajak o‘qituvchini informatika va axborot texnologiyalari fanlarini o‘qitishda, kelgusi kasbiy tayyorgarligida fanni o‘qitishning mazmuni va shakllarini tanlash tamoyillarini, boshqa predmetlar bilan o‘zaro aloqasini tushuntirishda, kompyuter va uning tarmoqlaridan malakali foydalana olishlarida, maktab kompyuter sinfi sharoitida ishlash usullarini egallashlarida yordam berish kabi masalalarni hal qilishga yordam beradi. Bo‘lajak informatika o‘qituvchisi mahalliy tarmoqli shaxsiy kompyuterlar bilan jihozlangan o‘quv yurtining informatika xonasini tashkil etishning vazifa,tamoyillari va xususiyatlarini bilishi, o‘quv yurti informatika kursi bo‘yicha mavjud darslik, o‘quv qo‘llanmalarni chuqur o‘rganishi, uning amaliy dasturiy ta‘minoti bilan tanishgan, kompyuter sinflarida ishlash ko‘nikmalariga ega bo‘lmog‘i lozim. Bo‘lajak o‘qituvchi mustaqil ravishda zamonaviy axborot texnologiyalari asosida o‘tkaziladigan o‘quv-tarbiya jarayonini tahlil qila olishi va o‘quv yurtida o‘qitish uchun zarur bo‘lgan zamonaviy o‘quv-uslubiy ta‘minotni ishlab chiqa olishi zarur.



E CONF SERIES



International Conference on Modern Science and Scientific Studies

Hosted online from Madrid, Spain

Website: econfseries.com

20th December, 2024

Axborot texnologiyasi insoniyat taraqqiyotining turli bosqichlarida ham mavjud bo‘lgan bo‘lsada hozirgi zamonda axborotlashgan jamiyatning o‘ziga xos xususiyati, shuningdek sivilizatsiya tarixida bиринчи marta bilimlarga erishish va ishlab chiqarishga sarflanadigan xarajatlardan ustunlik qilmoqda, ya‘ni axborot texnologiyalari yetakchi o‘rinni egallamoqda. Axborot texnologiyalari industruyasi majmuyini kompyuter aloqa tizimini takomillashtirish lozim. Ma‘lumotlar ombori, bilimlar ombori va u bilan birgalikda faoliyat sohalari tashkil qilindi. Bugungu kunda axborot texnologiyalarini shartli ravishda —saqllovchi, ratsianallashtiruvchi yaratuvchi turlarga ajratish mumkin. Birinchi turdagи texnologiyalar mehnatni moddiy resuslarini vaqtни tejashi, ya‘ni onlayn amalga oshirilishi. Ratsionalashtiruvchi axborot texnologiyalariga es chiptalar buyurtma qilish, mehmonxona hisob-kitoblari tizimlari misol bo‘ladi. Jamiyatni axborotlashtirish jarayonini 5 ta asosiy yo‘nalishlarga ajratish mumkin:

- ✓ Mehnat texnologik va ishlab chiqarish jarayoni vositalarini kompleks avtomillashtirish;
- ✓ Ilmiy tadqiqotlar, loyihalash va ishlab chiqarishni axborotlashtirish ;
- ✓ Tashkiliy-iqtisodiy boshqarishni avtomillashtirish;
- ✓ Ta’lim va kadrlar tayyorlash jarayonini axborotlashtirish ;
- ✓ Aholiga xizmat ko‘rsatish sohasini axboratlashtirish.

Maktablarda yangi axborot tizimlarini o‘qitish foydalanish standart o‘quv jarayonini jadallashtirish talabada ilmga qiziqishini oshiradi, ular ijodiy faoliyatini o‘stiradi, bilim berishga differential yondashib olingen bilimlarini takrorlash va mustahkamlash hamda nazorat qilishni yengilashtiradi. Talaba o‘quv jarayoni subyektiga aylantiriladi va yangi axborot texnologiyalaridan talim-tarbiya jarayonini quyidagi shakllarda foydalanish mumkin:

- ✓ Muayyan predmentlarni o‘qitishda kompyuter darslari;
- ✓ Kompyuter darslari ko‘rgazmali materiallari sifatida olib boriladi.

Talabalar guruhli va frontal ishlarini tashkillashtirishda kompyuterlarning va axborot texnologiya vositalarining o‘rni juda ahamiyatli hisoblanadi. Informatika va Axborot texnologiyalari fanlari jamiyat taqozasi bilan rivojlanib bormoqda. Umuman olganda, axborot texnologiyasi o‘zi uchun asosiy muhit bo‘lgan axborot tizimlari bilan bevosita bog‘liqdir. Chunki, axborot texnologiyasi axborot



E CONF SERIES



International Conference on Modern Science and Scientific Studies

Hosted online from Madrid, Spain

Website: econfseries.com

20th December, 2024

tizimlarida mavjud bo‘lgan ma’lumotlar ustida bajariladigan turli xil murakkablikdagi operatsiyalar, amallar va algoritmlarni bajarishdan iborat bo‘lgan tartiblashtirilgan jarayonlarni o‘quv mashg‘ulotlarida targ‘ib qilish hamda amalda bajarish ishlarini kuzatish mumkin.

Adabiyotlar royxati

1. “Matematika va informatika o‘qitish metodikasi” fanidan o‘quv- metodik majmua J.O‘.Muxammadiyev Toshkent.2019
 2. Matematika o‘qitish metodikasi.S.Alixonov. Toshkent. “Cho‘lpon” 2011.
 3. M.E. Jumayev “Matematika o‘qitish metodikasi”. Toshkent. “O‘qituvchi”. 2004
- References.